XIVA XONLIGINING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI TARIXI (ERON ELCHISI RIZOQULI HIDOYATNING “SAFARNOMA” ASARI MISOLIDA)

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich,
Urganch innovatsion universiteti dotsenti

Erkinov Kamron Baxtiyor o‘g‘li,
Urganch innovatsion universiteti magistranti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19547812

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asrda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayoti Eron elchisi Rizoqulixon Hidoyatning “Saforatnomai Xorazm” (“Safarnoma”) asari asosida tahlil qilinadi. Asarda Xiva xonligi bilan Eron o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar, xonlikdagi qullik tizimi, eronlik asirlarning ahvoli hamda elchining ularni ozod qilish borasidagi harakatlari yoritilgan. Shuningdek, Xorazm hududining tabiiy sharoiti, shaharlar, aholining turmush tarzi, urf-odatlari, mehmondo‘stlik an’analari va savdo-pul munosabatlariga oid ma’lumotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida “Safarnoma” asari Xiva xonligining XIX asrdagi tarixini o‘rganishda muhim tarixiy manba ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xiva xonligi, Rizoqulixon Hidoyat, Saforatnomai Xorazm, Safarnoma, diplomatik munosabatlar, Eron elchisi, qullik tizimi, eronlik asirlar, Muhammad Aminxon, XIX asr.*

Аннотация. *В данной статье анализируется общественно-политическая жизнь Хивинского ханства XIX века на основе произведения персидского дипломата Ризакулихана Хидаята «Сафоратнома-и Хорезм». В работе рассматриваются дипломатические отношения между Ираном и Хивинским ханством, положение иранских пленников и рабов, а также попытки иранского посла добиться их освобождения. Кроме того, в источнике приводятся сведения о природных условиях Хорезма, городах, образе жизни населения, традициях гостеприимства и торгово-денежных отношениях. В результате исследования показано, что данное произведение является важным историческим источником для изучения истории Хивинского ханства XIX века.*

Ключевые слова: *Хивинское ханство, Ризакулихан Хидаят, «Сафоратнома-и Хорезм», сафаранома, дипломатические отношения, иранский посол, рабство, иранские пленники, Мухаммад Амин-хан, XIX век.*

Abstract. *This article analyzes the socio-political life of the Khiva Khanate in the nineteenth century based on the travel account “Saforatnama-yi Khorezm” (“Safarnama”) written by the Persian diplomat Rizaquli Khan Hidayat. The study examines diplomatic relations between Iran and the Khiva Khanate, the situation of Iranian captives and slaves, and the efforts of the Iranian envoy to secure their release. The work also provides information about the natural conditions of Khorezm, cities, the lifestyle of the population, traditions of hospitality, and trade and monetary relations. The research concludes that this travel account represents an important historical source for studying the history of the Khiva Khanate in the nineteenth century.*

Keywords: *Khiva Khanate, Rizaquli Khan Hidayat, Saforatnama-yi Khorezm, Safarnama, diplomatic relations, Iranian envoy, slavery, Iranian captives, Muhammad Amin Khan, nineteenth century.*

Kirish. Xiva xonligining XIX asrdagi ichki va tashqi siyosati masalalarini yoritishda nafaqat mahalliy mualliflarning, balki qo‘shni davlat elchilarining esdalik hamda kundalik qaydlari ham muhim manba sifatida katta ahamiyatga egadir.

“Safarnoma”larda mahalliy mualliflar e’tiboridan chetda qolgan mintaqa aholisiga xos xususiyatlarga oid ma’lumotlar, o‘sha davrda bo‘lib o‘tgan voqealarning sabablarini ochib beruvchi faktlar o‘z ifodasini topganligi ularning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. “Safarnoma” mualliflari bu yerga tashrif buyurishar ekan, o‘z oldilariga alohida masalani tadqiq qilishni emas, barcha ko‘rgan-bilganlarini qayd etib borish maqsadini qo‘yishgan. Shu bois ular o‘z “Safarnoma”larida Xorazm o‘lkasining tabiati, odamlari, ularning fe’l-atvoridan tortib to urf-odatlarigacha, gavjum bozorlariyu ko‘chalari, shuningdek, o‘zlari duch kelgan qiyinchiliklarni hamda mamlakatdagi siyosiy vaziyat kabi turli-tuman masalalarni, ba’zan bir-birini to‘ldirib, ba’zan bir-biridan farq qiluvchi ma’lumotlarni batafsil yoritishga harakat qilishgan.

Adabiyotlar tahlili. Eron davlati bilan Xiva xonligi o‘rtasidagi diplomatik aloqalarga bag‘ishlangan Rizoqulixon Hidoyatning “Saforatnomai Xorazm” (Xorazm safari kundaligi) nomli sayohatnomasidan ham Xiva xonligidagi qulchilik munosabatlariga oid qimmatli ma’lumotlar olishimiz mumkin. Jumladan, uning yozishicha, Buxoro amiri bilan xonlik o‘rtasidagi o‘zaro urushlar oqibatida minglab asirlar xonlikka keltirilgan va Ko‘hna Urganch atroflariga joylashtirilgan. Ammo, bu asirlarning haqiqatdan qul qilinganmi yoki yo‘qmi aniq ma’lumotlar bermaydi. Faqat xonlik ra’iyati sifatida azob-uqubatda yashayotganliklarini yozadi, xolos.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-komparativ va manbashunoslik metodlaridan foydalanilib, Saforatnomai Xorazm asaridagi ma’lumotlar boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayoti, diplomatik munosabatlari hamda qullik tizimiga oid ma’lumotlar kompleks ravishda o‘rganildi.

Tahlillar va natijalar. Amir ash-shuaro Rizoqulixon Hidoyat bin Muhammad – Hoji Tabaristoniy 1800-yilda Tehronda tavallud topgan. Uning otasi mamlakat hukmdorlariga yaqin a’yonlardan bo‘lib, dastlab Og‘a Muhammadshoh Qojar (1779-1797) va bir necha muddat Fathalishoh (1797-1834) hukmronligi yillarida xazinachi lavozimida xizmat qilgan, so‘ng shoh tomonidan Fors viloyatiga xuddi shu vazifani ado etishga yuborilgan. Otasidan vaqtli yetim qolgan Rizoquli Barfurushdagi qarindoshlari hamda Fors viloyatida o‘gay otasi Muhammad Mahdixon Shixna Mozandaroniy qo‘lida tarbiya topdi. U dastlab Forsda Fathalishohliig o‘gillaridai biri – Husayn Ali Mirzo xizmatida bo‘ldi, so‘ngra shohning taklifi bilan Tehronga ko‘chib, saroyda Xon va Amir ash-shuaro unvoniga sazovor bo‘ladi. 1834-yilda Muhammadshoh dan keyin shahzodalardan avval Feruz Mirzo, so‘ng Faridun Mirzolar huzurida maslahatchi vazifasini bajaradi.

Muhammadshoh 1839-yildagi Hirot yurishidan mag‘lub bo‘lib qaytgach, uni saroyga chaqirtiradi va o‘z valiahdi Abbos Mirzoga otabek qilib tayinlaydi. 1847-yilda u Feruzqul nohiyasiga hokim etib tayinlanadi. 1848-yilda Nasriddinshoh taxtga o‘tirgach, Rizoqulixon ma’lum muddat davlat ishlaridan cheklanadi va asosan ijod bilan shug‘ullanadi. 1851-yilda u shoh huzuriga chaqirilib, Xivaga elchi qilib yuborilgan. Sakkiz oy davom etgan ushbu safardan qaytgach, uni Tehronda tashkil etilgan Dorulfununga rahbar etib qo‘yishadi. U ana shu lavozimda qariyb 15 yilcha faoliyat ko‘rsatadi. So‘ngra valiahd Muzaffariddin Mirzoga Lolaboish, yani otabek qilib tayinlaiadi va shu vazifani bajarish asnosida bir necha yil Tabrizda istiqomat qiladi. Rizoqulixon 1871-yil 30-iyunda Tehron shahrida olamdan ko‘z yumgan. Rizoqulixon yirik olim, shoir va tarixnavis sifatida o‘z davrida katta hurmat qozongan fors allomalaridan biri sanaladi. Uning qalamiga mansub bo‘lgan tarixiy asarning o‘zi yigirmadan ortiqdir.

Hidoyatning ilmiy va ijodiy faoliyati uning davlat boshqaruvidagi faoliyati bilan uyg‘un bo‘lgan. U zamonasining siyosiy jarayonlariga ta’sir ko‘rsatgan va Eronda madaniy rivojlanishga hissa qo‘shgan. 1851-yili Eron hukmdori Nosiriddinshox tomonidan Xiva xoni Muhammad Aminxon xuzuriga ikkala qo‘shni mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni barqarorlashtirish, eronlik asir, tutqun-qullarni ozod etish muzokaralarini olib borish maqsadida Rizoqulixon Hidoyat elchilik yo‘sini bilan yuboriladi.

Mashhur shoir, adib va ma’rifatchi, noshir Rizoqulixon Hidoyat 1800-yili qojarlar sulolasi xizmatidagi Muxammad Xodixon ibn Ismoil Kamol oilasida Tehronda dunyoga kelgan. Uning katta ajdodi asli O‘rta Osiyolik mashhur shoir Kamol Xo‘jandiy (XIV asr) bo‘lib, Hofiz Sheroziy bilan ijodiy, do‘stona aloqalar o‘rnatgan xo‘jandlik bu shoir umrining ohirgi damlarini Tabrizda o‘tkazgan va o‘sha shaharga dafn etilgan. Rizoqulixon yoshligidan Qojarlar sulolasining vakili Fathali Shoh (1797-1834)ning saroyida xizmat qilgan. O‘zining rangin she’rlari bilan shohning nazariga tushgan Rizoquli “amir ush-shuaro” (“shoirlarning amiri”) unvonini olgan.

Rizoqulixon ham ulug‘ ajdodiga o‘xshab shoir, adib bo‘lib yetishadi. Shuning uchun u ham vaqti kelib, saroyga taklif etiladi hamda ota-bobolari davlat ishlarida qatnashgan Rizorulixon Hidoyat saroy va hukumatdagi ma’rifiy, madaniy yumushlarga jalb etiladi. U Muhammadshox Qojar (vaf.1847)ning o‘gli Abbos Mirzo (noyib us-saltana Mulk Oro)ga o‘qituvchi-murabbiy bo‘lgani sababli saroyda beriladigan “Lala boshi” (shohzodalarni tarbiyalovchilar boshligi) unvonini ham olgan. Bir necha yil mobaynida joylarda hokimlik lavozimlarini ham boshqaradi.

Rizoqulixon Hidoyat 1851-yilda Nasriddin Qojar (1834-1848) ning topshirig‘i bilan Xiva xoni Muhammad Aminxon (1846-1855) huzuriga elchi bo‘lib keladi. Mazkur elchilik asnosida Eron - Xorazm munosabatlariga oydinlik kiritish yuzasidan muzokaralar

olib borilgan. Xorazmdagi sayohati haqida u “Saforatnomai Xorazm” (“Xorazm safari kundaligi”) asarini ham yozadi (Mazkur asar 2009 yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida Ismoil Bekchon tarjimasida o‘zbek tilida bosilib chiqqan). Mazkur asarida Rizoqulixon Xorazm xaqlining tarixi, madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an’analari, xususan, Xiva xonligida XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.

Rizoqulixon Hidoyatning esdaliklarida Xorazmning XIX asr qiyofasiga oid bir qancha ma’lumotlar beriladi. Bular tabiiy sharoit, daryolar, shaharlar, aholi marosimlari, ijtimoiy hayot masalalari, siyosiy voqealar va tarixiy shaxslar haqida ma’lumotlar zikr qilinadi. Shunday ma’lumotlardan e’tiborlisi aholining va xonlikning umumiy ichki ijtimoiy-siyosiy hayotidir.

Rizoqulixon tomonidan Xorazmda ziyofat berish marosimlari va tartiblari ham bayon qilingan. Xon vaziri Yoqub mehtarning uyiga borishga kelishilgan kuni Muhammad Rahimxon qurdirgan binolardan bo‘lmish va Xivak shahri tashqarisida joylashgan, ya’ni shu kunlarda kamina yashayotgan Gandumkon bog‘idan chiqib, otda xizmatkorlarim bilan shaharga kirib bordik va mehtarning uyiga yetdik. Uy eshigi oldida xizmatda ko‘l qovushtirib turgan bir to‘da odamga ko‘zim tushdi. Ularning hammasi bu nodon mehtar sotib olgan eronlik asir-u qullar edi.

Xulosa. Asarda keltirilgan ma’lumotlar asosida xonlikdagi mehmon kutish va mehmonga borish odobi, dasturxon yozish va bazmda kechuvchi jarayonlar haqida o‘ta qimmatli ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Elchi tomonidan uyushtirilgan bazm o‘zgacha dastur va tamoyillar asosida, xonlik uchun an’anaviy bo‘lmagan taomnoma asosida tashkil qilingani mehmonlarda kuchli tasurot qoldirgan. Bu xususda elchining ma’lumotlaridagi madaniyatlarni solishtirishi o‘z qarashlari va biryoqlamalikka asoslanadi. Rizoqulixon tomonidan bayon qilingan ma’lumotlar ichida xonlikdagi savdo-pul masalasiga doir ma’lumotlar ham bo‘lib, unda xonlik pullari faqat ichki savdoda amal qilishi bayon qilinadi: …pulimizni “ashrafiy” va “riyol” deb atasak, ular o‘z pullarini “tanga” deydilar. Bu keltirgan tangalari o‘sha Muhammad Aminxon zarb ettirgan tangalar bo‘lib, boshqa atrof o‘lkalarda yurmaydi, shuning uchun shu yerning o‘zida sarflab qo‘yaqolishimizga to‘g‘ri keldi. Unga tuya, ot va mulozimlar uchun kerak narsalar va yo‘l ozuqasi sotib oldik. Xiva xoni tomonidan elchining asirlar borasidagi so‘rovi rad qilinib, ular ozod qilinmasligi haqida javob beriladi. Elchi ilojsiz faqat bir necha asirni egalaridan sotib olib orta qaytarishga majbur bo‘ladi. Rizoqulixon Hidoyat elchiligi qanday tarixiy sharoit va muhitda tashkil qilinib, ko‘zlangan natijalar hamda maqsadlarga erishilmaganiga qaramasdan Xorazmning XIX asrdagi tarixini bayon qilganligi bilan qimmatlidir. Elchi o‘z safarnomasida ko‘rgan-kechirganlarini real tasvirlar asosida bayon qilgani bilan tariximiz uchun katta xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ризоқулихон Ҳидоят. Сафарномаи Хоразм. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009.
2. Стори Ч.А. Персидская литература. Библиографический обзор. Глава II. Главная редакция восточной литературы. – М., 1972.
3. Karimov S. “Ravzat us-safo” asari Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishdagi ahamiyati // Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2022. – Т. 1. – №. 24.
4. Хоразм сафари кундаликлари. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009.